

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

EGAMBERDIYEVA KAMOLA IBROXIMOVNA

**HOZIRGI O‘ZBEK HIKOYALARIDA TASVIR VA TALQIN
(Zulfiya Qurolboy qizi asarlari misolida)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferatining mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

Egamberdiyeva Kamola Ibroximovna

Hozirgi o‘zbek hikoyalarida tasvir va talqin (Zulfiya Qurolboy qizi asarlari misolida)..... 3

Egamberdiyeva Kamola Ibroximovna

Imagination and interpretation in modern Uzbek stories (as an example of the works of Zulfiya Qurolboy’s qizi) 23

Эгамбердиева Камола Иброхимовна

Изображение и интерпретация в современных узбекских рассказах (на примере произведений Зульфийи Куролбой кизи)..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ..... 48

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

EGAMBERDIYEVA KAMOLA IBROXIMOVNA

**HOZIRGI O‘ZBEK HIKOYALARIDA TASVIR VA TALQIN
(Zulfiya Qurolboy qizi asarlari misolida)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2472 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Guliston davlat universiteti veb-sahifasining (www.gdu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Yo'ldoshev Qozoqboy Boybekovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Hamqulova Xurshida Quvvatovna
filologiya fanlari doktori, professor

Nosirov Azmiddin Normamatovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "6" iyul soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel.: (99 867) 225-40-42; faks: (99 867) 225-02-75; E-mail: glsu.info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (18 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:120100, Guliston sh, 4-mavze. Tel.:(99867) 225-40-42).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "27" may kuni tarqatildi.

(2024-yil "27" may dagi 18 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.R. Mamatqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A. Axrorov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
otib filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

F.G. Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida hikoya janrining taraqqiyoti va uning tadrijiy takomilini bosqichma-bosqich o'rganish zarurati ortib bormoqda. Xususan, yaratilayotgan hikoyalarda shakl, uslub va ifoda usullari mutanosibligini aniqlash, badiiy obraz yaratish yo'sinlari mohiyatini belgilash, shuningdek, alohida hikoyanavis ijodiga xos shakliy-uslubiy tamoyillar tadriji yoxud muayyan avlod yozuvchilari hikoyalarida o'ziga xoslik, tasvir va talqin, milliy hamda jahon hikoyachilik maktablari amaliyotiga mushtaraklik, poetik mahorat singari muammolarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida ijtimoiy va fikriy yangilanish davrida jamiyat a'zolarida yuz bergan katta o'zgarishlar badiiy asarlarda insonning murakkab ma'naviy, ruhiy olamini aks ettirishga ustuvorlik berilishini taqozo qilmoqda. Bu holat badiiy adabiyot namunalariga yondashishning yangicha yo'llarini izlashni talab qiladi. Garchi badiiy asarlar tahlili bo'yicha adabiyotshunoslikda keng ko'lamdagi ilmiy tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, hozirgacha asarlarni mavzu dolzarbligi-yu, ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra tekshirish hollari to'la yechimini kutmoqda. Shunday ekan adabiyotshunoslik oldidagi asarni matndan kelib chiqqan holdagina tadqiq etish hamda matn tabiatiga mos tarzda tahlil va talqin masalalariga ilmiy baho berish dolzarblik kasb etib kelmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, avvalo, inson ruhi, dunyoqarashi, intilishlarini milliy o'ziga xoslikni saqlagan holda umuminsoniy tamoyillar asosida shakllantirishga qaratilgan. So'nggi yillarda adabiyotda o'zbek ayoli obrazining badiiy ifodasi o'ziga xos tarzda namoyon bo'lmoqda. Ijtimoiy ong shakli sifatida o'zida xalq o'tmishi, buguni va kelajagini aks ettiradigan o'zbek adabiyoti, xususan, o'zbek nasrida yuz berayotgan evrilishlarni ilmiy jihatdan asoslash, obraz va uning tabiatini ochib berish, badiiy ijod konsepsiyasining yangilanish manbalari va omillarini aniqlash shu orqali uning yaqin kelajakdagi rivojlanish yo'lini belgilash o'zbek adabiyotshunosligining muhim vazifalari tarkibiga kiradi. "Nega deganda, adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q"¹. Binobarin, bugungi o'zbek jamiyatida shakllangan inson o'zigacha bo'lgan ajdodlaridan tubdan farq qiladi. Ana shu o'zgachaliklarni chuqur tadqiq etib, ildizlarini aniqlash, tamoyillarini belgilab berish, ilmiy xulosalar chiqarish ushbu dissertatsiyaning zaruriyatini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekiston yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son

¹Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақкам пойдеворидир // "Халқ сўзи" газетаси, 2017 йил 4 август сони.

“2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida Mixail Baxtin: “...insoniy evrilish – o‘zlikni anglash bilan birgalikda kechishini, hikoyaning bir necha bosqichlari bor”ligini ta’kidlasa², Nikolay Berdyayev esa shaxs inson qobiliyatining butun ma‘naviy-ruhiy ustuni, insonni ijod va ozodlik bilan bog‘lash hikoyaning asosidir, degan fikrni ilgari suradi³. O‘zbek hikoyachiligi Ninel Vladimirova tomonidan chuqur tadqiq qilingan. Uning ishlarida hikoya nazariyasiga oid xulosalar muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek adabiyotshunosligida hikoyalarni tasvir va talqin konsepsiyasi doirasida tadqiq etish o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Xususan, akademik Matyoqub Qo‘shjonov, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Oybek hikoyalarida tasvir konsepsiyasi haqida fikr yuritgan¹. Professor B.Sarimsoqov fikricha, “...badiiy obrazning o‘ziga xos belgilari, betakror qirralari borki, ular adabiy turlar, janrlarning turli tarixiy taraqqiyot bosqichlarida o‘zlarini turlicha namoyon etib keldi²”,– deb yozadi. Professor Umarali Normatov “Qodiriy mo‘jizasi” nomli monografiyasida Abdulla Qodiriy asarlaridagi qahramon qiyofasini mustaqillik mafkurasi asosida jiddiy tahlil etgan. Unda buyuk adib hikoyalariga M.Sheverdin, Oybek, G‘afur G‘ulom, Sotti Husaynlarning vulgar sotsiologik yondashuvlari, qarashlari haqida tanqidiy fikrlar mavjud. Professor A.Rasulov esa “...har bir zamon, millat adabiyoti insonni qanday nuqtayi nazardan tasvirlashi bilan bir-biridan farq qiladi. Eng qisqa she’rlarda ham xarakterning nozik bir nuqtasi aks etganidek, epik asarlarda inson ruhiyati, maqsadlari butunligicha tasvirlanadi. Har bir janr, tur xarakterini tasvirlashdagi bichim, shakldir. Hozirgi ilg‘or jahon adabiyotida insonning barcha tomonlarini qamragan holda, bus-butun aks ettirish yo‘llari izlanmoqda”,– deya insonga tugal, aniq va o‘zgarmas yondashuv yo‘sini yo‘qligini to‘g‘ri ko‘rsatgan⁴. Professor H.Karimov o‘tgan asrning 70-80-yillari hikoyalari misolida hayotiy va badiiy haqiqat munosabatini tadqiq etgan⁵. Taniqli olim D.Quronov tadqiqotlarida qahramon

² Бахтин М. Романда замон ва хронотоп. –Т.: Akademnashr, 2015. – Б. 77-84.

³ Бердяев Н. Жамият ҳаётида сўз ва воқелик // Жаҳон адабиёти. – Т., 2006. – Б.170-177.

⁴ Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарк, 2007. – Б. 27.

⁵ Каримов Х. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80 йиллар). Филол. фан. док. ... дисс. – Т., 1994. – 320 б.

tasvirining badiiy ijod konsepsiyasi bilan bir tizimga egaligi bayon qilingan⁶. B.Karimov esa qahramon obrazini ochib berishda germenevtik tahlilga tayanadi⁷.

Shuningdek, M.Xolbekov⁸, I.Yoqubov⁹, U.Hamdamiyov¹⁰, M.Farmonova¹¹, M.Otajonova¹², S.Matyakubov¹³, A.Ulug'ov¹⁴, G'.Murodov¹⁵ kabi tadqiqotchilar qahramon tasvirini olam, jamiyat, davr, tabiat bilan birgalikda, yaxlit tizim sifatida tadqiq etishgan. Ularning ishlarida yangi davr va yangicha badiiy-estetik tamoyillar asosidagi qahramon tasvirining turli qirralari tekshirilgan. Q.Qahramonov Abdulla Qahhor hikoyalaridagi obrazlarni konseptual jihatdan tushunishga harakat qiladi¹⁶. Z.A.Kasimova jadid adabiyotidagi qahramon tasvirini A.Fitrat, A.Qodiriy, A. Cho'lpon hikoyalari misolida tahlil etgan¹⁷. A.Sabirdinov A.Qahhor va Oybek ijodidagi qahramon tasvirini qiyoslab tekshirgan¹⁸.

Iste'dodli yozuvchi Zulfiya Qurolboy qizi o'zbek adabiyoti xazinasini jiddiy hodisa darajasiga ko'targan bir qator asarlari bilan boyitgan bo'lsa-da, adabiyotshunoslikda bugungi kungacha uning ijodini mufassal tahlil etuvchi tadqiqotlar yaratilganicha yo'q. Shu vaqtga qadar yozuvchi asarlari yuzasidan Umarali Normatov, Qozoqboy Yo'ldoshev, Xurshid Do'stmuhammad, Nusratillo Jumaxo'ja, Uzoq Jo'raqulov singari adabiyotshunos olimlarning maqolalari chop etilgan, Nilufar Haydarova "Armon asirasi" romanini Jenni Erpenbek qalamiga mansub "Makon istab" romani bilan qiyoslab o'rgangan, Manzura Jo'rayeva "Zamonaviy o'zbek nasrida yangi inson konsepsiyasi (Abduqayum Yo'ldosh va Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari asosida), Dilafuz Abdullayeva esa "Zamonaviy arab va o'zbek hikoyalarida badiiy psixologizm (G'ada as-Samman va Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari misolida)" nomli ilmiy tadqiqot olib borgan¹⁹. Xurshida Xamroqulova tomonidan esa "XX asr o'zbek nasrida hayot va o'lim muammosining badiiy talqini" nomli monografiyasi nashr etilgan. Shu o'rinda o'zbek hikoyachiligini maxsus tadqiq qilgan olimlar sifatida A.Alimuhamedov, N.Vladimirova, Sherali Turdiyev, Gulnoz Sattorova, Saodat Komilova, Barno Hasanova, Poshsha Kenjayevalarning tadqiqotlari ham muhim ahamiyatga ega.

⁶ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Fan, 2007. – 206 b.

⁷ Karimov B. Abdulla Qodiriy: Tanqid, ta'hlil va talqin. – T.: Fan, 2006. – 232 b.

⁸ Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti manzaralari: maqolalar to'plami. – T.: Mumtoz so'z, 2014. – 388 b.

⁹ Yaqubov I. Mустақиллик davri ўzbek romanlari poetikasi. Фил.фан.док. (DSc) ...дис. автореф. – Т., 2018. – 72 б.

¹⁰ Хамдамов У. XX asr ўzbek шеърийти бадий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Фил.фан.док. (DSc) ...дис. автореф. – Т., 2017. – 72 б.

¹¹ Фармонова М. 80 йиллар ўzbek лирикасида табиат ва инсон концепцияси. Фил.фан.ном. ... дис. автореф. – Т., 2009. – 24 б.

¹² Отажонова М. Иззат Султоннинг сўнгги йиллар драматургиясида замон ва қахрамон концепцияси. Фил.фан.ном. ...дис. автореф. – Т., 2008. – 24 б.

¹³ Матякубов С. Ҳозирги ўzbek ҳикояларида инсон концепцияси ва шахс бадий талқини. Фил.фан.ном. ...дис. автореф. – Т., 2009. – 24 б.

¹⁴ Улугов А. Адабий қахрамон кадри. Ўzbek адабий танқиди. – Т.: Турон-Иқбол, 2011. – Б. 462-476.

¹⁵ Муродов Ф. Тарихий романнинг муштарақлик ва ўзига хосликлар уйғунлиги муаммолари. Фил.фан.док. (DSc) ... дис. автореф. – Т., 2018. – 80 б.

¹⁶ Қахрамонов К. Тушуниш тамойили // Шарқ юлдузи, 2009. – № 3. – Б. 165-167.

¹⁷ Касимова З.А. Концепция мира и человека в призме традиций национальной и мировой литературы. –Т.: Фан, 2008. – 232 б.

¹⁸ Сабирдинов А. Маънавият ва маърифат чашмалари. – Т.: Академнашр, 2016. – Б. 76-86.

¹⁹ Жўраева М. Замонавий ўzbek насрида янги инсон концепцияси (Абдуқайум Йўлдош ва Зулфия Қуролбой кизи ҳикоялари асосида). Фил.фан. ном. ...дис. автореф. – Ф.: 2018. – 24 б.

Lekin yuqorida tilga olingan biror tadqiqotda ham yozuvchining hikoyalari tasvir va talqin konsepsiyasi nuqtayi nazaridan o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida olib borilayotgan "Filologiya ilmiga zamonaviy yondashuvlar" mavzusidagi ustivor vazifasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi istiqlol davri o'zbek hikoyachiligida tasvir va talqin konsepsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini iste'dodli adiba Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari misolida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

zamonaviy o'zbek hikoyachiligining taraqqiyot tamoyillari va tasvir yo'sinidagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar ifodasi tadrijiga oid o'ziga xosliklarni ko'rsatish;

zamonaviy o'zbek hikoyalardagi personajlarning turli masala va muammolarni tushunishlari, qabul qilishlari jarayonidagi o'ziga xosliklarni ko'rsatish hamda hikoyalarda tasvir va badiiy talqinning o'ziga xosligini ta'minlagan omillarni aniqlash;

turli muhitda yashagan kishilar tasvirida hikoya zimmasiga yuklangan badiiy-estetik g'oyani yuzaga chiqarishda ijodkorning ifoda mahorati qanday namoyon bo'lganini tekshirish;

adiba hikoyalardagi obrazlarni jamiyat, oila va hayotda tutgan o'rnini, mavqeyi, tafakkur darajasi, hayotiy maqsadiga ko'ra tasniflash, zamonaviy qahramonning real voqelikdagi insonlar bilan munosabatini aniqlash;

yo'zuvchi hikoyalarda shaxsning ijtimoiy-psixologik o'ziga xosligi asardagi o'zga personajlar bilan munosabatida qanday namoyon bo'lganligi sababini ko'rsatish.

Tadqiqot obyekti sifatida Zulfiya Qurolboy qizi qalamiga mansub hikoyalar olindi.

Tadqiqotning predmetini Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarda tasvir va badiiy talqin borasidagi o'ziga xoslikni ko'rsatib berish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda germeneytik, qiyosiy, tarixiy, induktiv, deduktiv, tavsiflash va tasniflash singari usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek hikoyachiligining inson timsolini badiiy talqin qilish va tasvirlash hamda jamiyat ahli ma'naviy dunyosida keyingi davrlarda ro'y bergan ko'p qirrali o'zgarishlarning namoyon bo'lishi borasidagi taraqqiyoti Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari va boshqa novellistlarning asarlari qiyosi misolida asoslangan;

ifoda yo'sini lo'nda, ramziy bo'yoqdor, yashirin ma'nolarga egalik, badiiy g'oyani yorqin ifodalash, qahramonning ichki dunyosini chuqurroq ochish, hech kimga o'xshamagan alohida va betakror tiplarni tasvirlash, obrazlar xarakter-xususiyatlari bo'yicha xulosani o'quvchining hukmiga qoldirish adiba asarlarining o'ziga xos jihatlari ekanligi isbotlangan;

adiba hikoyalardagi obrazlarning ichki va tashqi olamidagi o‘zaro uyg‘unlik, ularning ruhiyatidagi evrilishlar keskin dramatik kolliziyalar fonida ko‘rsatilishi ayollarning nafosat, go‘zallik, latofat ramzi sifatida emas, balki tarashlanmay, silliqlanmay, butun fazilat-u illatlari bilan tasvirlanishiga bog‘liqligi asoslangan;

o‘zbek hikoyachiligida ota-bola, erkak va ayol munosabatlarining badiiy talqini, ijtimoiy-maishiy, ma’naviy-axloqiy qiyofasi hayotiy vaziyatlarda ishonarli va ta’sirli aks ettirilishi kabi milliy novellistikadagi tasvir va talqin jihatidan yangilanishlar adiba asarlaridan keltirilgan misollar asosida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mustaqillik davri ijtimoiy-estetik tafakkurdagi o‘zgarishlarning qahramon qiyofasini yaratish masalasi bilan bog‘liq xususiyatlari zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida shakllanib kelayotgan yangicha qahramon va uning turmush tarzi misolida yoritib berilgan;

hikoyalardagi obraz va obrazlilikning personaj ijtimoiy- psixologik holatini asardagi badiiy-estetik moduslar, poetik kompozitsiya, yozuvchining individual uslubi va badiiy ifodasi nuqtayi nazaridan kelib chiqib asoslanga;

globallashuv jarayonidagi jamiyat kishisining ruhiyati tasviri bo‘yicha ijtimoiy-falsafiy, diniy-mistik, xayoliy-fantastik tasvirlar bo‘yicha badiiy-falsafiy, nazariy-tipologik, tarixiy-qiyosiy xulosalar chiqarilgan va hikoya badiiyatidagi yangilanishlar ko‘rsatilgan;

yangi badiiy olam yaratishdagi ilg‘or tamoyillar, milliy tafakkurga xos xususiyatlar hamda jahon adabiyotining ilg‘or yutuqlari olam va odam munosabatlaridagi badiiy-falsafiy evrilish zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi qahramon va uning boshqalardan farq qiluvchi badiiy-estetik olami yaratilgani ko‘lami misolida dalillangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, chiqarilgan xulosalarning ilmiy asoslangani hamda vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani, qarashlar o‘zbek va jahon adabiyotining turli davrlarda yaratilgan badiiy va ilmiy asarlarga tayanib isbotlanganligi, dunyo adabiyotshunosligining yangi yo‘nalishlari va tahlil usullari asosida ilmiy-nazariy asoslangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati umumlashtirilgan ilmiy-nazariy xulosa va natijalarning hozirgi adabiy jarayon, o‘zbek badiiy tafakkuri va badiiy-falsafiy, ijtimoiy-psixologik fikrlash tarzida yuz bergan o‘zgarishlar haqidagi bilimlarni to‘ldirishi va kengaytirishi, shuningdek, hikoya janriga mansub bugungi bitiklarning shakli-mazmuniy xususiyatlari haqidagi qarashlarni rivojlanishiga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Zulfiya Qurolboy qizining obraz yaratish mahorati, ularning falsafiy-psixologik omillari, manbalari, hikoya janri tabiati, tili va obrazlar tizimi haqidagi qarashlar “Yangi o‘zbek adabiyoti”, “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi”, “Nazariy poetika” kabi fanlardan yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi hamda ish yuzasidan e‘lon qilingan ilmiy

maqolalar adabiyotshunoslik fanlarini o'qitishda qo'shimcha manba sifatida yordam berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zamonaviy o'zbek hikoyalarida tasvir va talqin konsepsiyasining Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari misolidagi tadqiqi, hikoyachilikdagi badiiyat muammolarini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar va xulosalar asosida:

o'zbek hikoyachiligining inson timsolini badiiy talqin qilish va tasvirlash hamda jamiyat ahli ma'naviy dunyosida keyingi davrlarda ro'y bergan ko'p qirrali o'zgarishlarning namoyon bo'lishi borasidagi taraqqiyoti Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari va boshqa novellistlarning asarlari qiyosi misolida asoslanishi natijasida chiqarilgan xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan OT-F1-030-raqamli "O'zbek adabiyoti tarixi" ko'p jildlik monografiyasini (7-jild) chop etish fundamental loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 11-noyabrdagi 01/4-3096-sonli ma'lumotnomasi). Natijada monografiyaning XX-XXI asrlarga oid qismida adiba ijodida ayol obrazining badiiy talqini, yozuvchilarning nosirlik mahorati, adabiy-estetik qarashi uyg'unligi masalalaritga oid yangi ma'lumotlar bilan boyishiga erishildi;

ifoda yo'sini lo'nda, ramziy bo'yoqdor, yashirin ma'nolarga egalik, badiiy g'oyani yorqin ifodalash, qahramonning ichki dunyosini chuqurroq ochish, hech kimga o'xshamagan alohida va betakror tiplarni tasvirlash, obrazlar xarakter-xususiyatlari bo'yicha xulosani o'quvchining hukmiga qoldirish adiba asarlarining o'ziga xos jihatlari ekanligiga oid nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan BV-Atex-2018-(143) raqamli "Ko'zi ojiz shaxslar uchun kompyuter texnikasidan foydalanish, matnlarni o'qish va yozish imkonini beruvchi o'zbek tiliga asoslangan gapiruvchi dasturiy ta'minot va ovoz sintezatorini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 11-noyabrdagi 01/04-3097-sonli ma'lumotnomasi). Natijada lug'at so'zligi leksemalar semantik tabiati uchun xos bo'lgan portret, obraz, rakurs, modernizm, realizm, motiv, egoizm, fon, individualizm kabi lisoniy hodisalarni aks ettiruvchi materillar bilan boyishiga erishildi;

o'zbek hikoyachiligida ota-bola, erkak va ayol munosabatlarining badiiy talqini, ijtimoiy-maishiy, ma'naviy-axloqiy qiyofasi hayotiy vaziyatlarda ishonarli va ta'sirli aks ettirilishi kabi milliy novellistikadagi tasvir va talqin jihatidan yangilanishlar natijasida chiqarilgan xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan IL-402104474 raqamli "Bolalar adabiyoti.uz multimediali elektron platform va uning mobil ilovasini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 29-noyabrdagi 04/1-2544-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, loyihaning ilmiy-nazariy konsepsiyasi yangi fikr-mulohazalar bilan boyishiga erishilgan;

adiba hikoyalaridagi obrazlarning ichki va tashqi olamidagi o'zaro uyg'unlik, ularning ruhiyatidagi evrilishlar keskin dramatik kolliziyalar fonida

ko'rsatilishi ayollarning nafosat, go'zallik, latofat ramsi sifatida emas, balki tarashlanmay, silliqanmay, butun fazilat-u illatlari bilan tasvirlanishiga bog'liqligi asoslanishi bilan bog'liq ilmiy-nazariy xulosalardan "O'zbekiston" teleradio kanali davlat muassasasi tarkibidagi "O'zbekiston" telekanalida namoyish etilgan "Assalom, O'zbekiston", "Oydin hayot-live" teleko'rsatuvlari hamda "Xulosa o'zingizdan" tok-shusining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston teleradio kanalining 2023-yil 25-oktyabrdagi 02-16-1584-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mazkur ko'rsatuv yangi ilmiy-amaliy ma'lumotlar bilan boyitilib, uning ilmiy-ma'rifiy saviyasining yanada yuksalishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari uchta xalqaro, ikkita respublika ilmiy-nazariy anjumanida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 nomda ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish yuzasidan OAK tavsiya etgan ilmiy nashrlarda oltita maqola, shundan beshtasi respublika hamda bittasi chet el jurnallarida nashr etilgan

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 131 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad-vazifalari, obykti, predmeti O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi ko'rsatilgan, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Ilk bob "**Hozirgi o'zbek hikoyachiligi rivojining yetakchi tamoyillari**"ni tadqiq etishga bag'ishlangan. Bobning birinchi faslida "**Bugungi o'zbek hikoyalarining yetakchi belgilari**"ni ko'rsatib berish ko'zda tutilgan. Hikoya o'zbek adabiyotida ko'p murojaat etiladigan kichik epik janr hisoblanib, u ixcham, biror voqea yoki holatni qisqa ifodalash imkonini berishi, syujet ko'lami va personajlar soni bir qadar cheklanganligi bilan ajralib turadi. Aslida "janr o'z tabiatiga ko'ra tasvirlangan voqea-hodisalarning xarakteri, ularning ichki qurilishi va arxitektonikasiga bog'liq bo'ladi. Asarning janrini belgilar ekan, san'atkor uning tuzilishi, tematikasi, qahramonlari, konflikti, va nihoyat, kitobxonini ham aniqlaydi. Shuning uchun janr haqida fikr yuritganda, san'atkorni hayajonlantirgan hayotiy muammoning qay darajada to'laqonli badiiy shaklga solinganligi nazarda tutiladi"²⁰.

Hikoyaning umri bashariyatning ulkan tarixi bilan teng, desak xato bo'lmaydi. Ilk hikoyalar insoniyatning dastlabki vakillari ruhiyatiga xos hodisa bo'lgandi. Ilk hikoyalarda aks etgan ruhiy jihatlar bugungi sivilizatsiyalashgan

²⁰ Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси (сюжет ва конфликт). Фил. фан. док. ...дисс. автореф. – Т., 1994. – Б. 8

odam ruhiyatidagi tuyg'ulardan tamomila o'zgacha xususiyatga ega emas. Inson bor joyda hikoyaga sabab ham, ehtiyoj ham bo'laveradi. Hatto, har bir inson hayotining o'zi son-sanoqsiz hikoyalardan iborat desak ham yanglishmagan bo'lamiz.

Hikoyada bir kishining ma'lum vaqtdagi hayoti orqali uning xarakteri, o'y-xayoli, ruhiyati, kechinmalari yoritilib, kitobxon ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatadi. Har qanday badiiy asar ezgulikka xizmat qilgandagina adabiyot namunasi hisoblanadi. Adabiyotning asl maqsadi kishilarni ezgulikka chorlash ekan, yaratilayotgan har bir ijod mahsuli ham ijodkorning mahoratiga, kuzatuvchanligiga, hayotni chuqur o'rganganligiga bog'liq. Ijodkor asariga xomashyoni hayotdan oladi, uni badiiy to'qima yordamida asar holiga keltiradi. Har qanday bitik singari hikoyaning ham haqiqiy bahosi uning ta'sir darajasi va vaqt sinovidan o'tishi bilan belgilanadi.

Yaqin yillargacha badiiy adabiyotda "ijobiy qahramon" obraziga alohida ahamiyat berilar edi. Ma'lumki, ijobiy qahramon ko'pincha muallifning estetik idealini tashiydi. Ko'pchilik o'quvchilar badiiy asardagi ijobiy qahramonlarga ayri-ayri ixlos qo'yadilar. Chunki ular hayotdagi ijobiy hodisalar tasviridirki, o'quvchilar bu hodisalarni alohida qadrlaydilar. Ijobiy qahramon o'quvchi uchun taqlid namunasi bo'lib xizmat qiladi"²¹. O'zbek hikoyalarida ham shu jihat ustuvorlik qilib kelgan. Ammo hozirgi hikoyalarda obrazlar yaqqol ijobiy-salbiyga bo'linmaydi.

Hikoyaning hajmi nisbatan cheklanganligi uning spetsifik belgisi sanalardi. Ammo unchalik ko'p bo'lmasada, "Bulut to'sgan oy" kabi yirik hajmli hikoyalar borligi bu belgini ma'lum darajada yo'qqa chiqaradi, deyish mumkin. Umumlashtirib aytganda, hikoyaga xos belgilar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- hikoya birgina asos voqea atrofiga quriladi;
- hikoyada xarakter bir yoki bir necha epizod orqali namoyon etiladi;
- xarakterlar, asosan, tayyor holda tasvirlaniladi;
- ko'pincha xarakterning birgina darajasi ko'rsatilib, obrazning hikoyaga kirguncha bo'lgan va hikoya tugagandan so'nggi holati o'quvchiga noma'lum qoladi;

-hikoyada personajlar soni cheklangan bo'ladi.

Hikoya janridagi asarlar haqida V.Belinskiy, M.Qo'shjonov, U.Normatov, A.Rasulov, T.Boboyev, Q.Yo'ldoshev, U.Jo'raqulov, X.Do'stmuhammad, D.Xoldorov singari ko'plab adabiyotshunoslar fikr bildirganlar. V. G. Belinskiy hikoyaning xususiyati haqida: "...bu kishilik taqdirining poyonsiz poemasidan bir epizoddir. ...asrlar davomida unutish mumkin bo'lmagan hayot haqiqatini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi; hikoya ana shunday voqea-hodisani tanlab oladi va o'zining tor ramkasida ifoda etadi..."²², – deydi.

Hikoyada ijtimoiy va ma'naviy hayotning turli-tuman masalalari ko'tarilsada, ammo roman va qissalardagidek keng ko'lamda tasvir etilmaydi. Ba'zan

²¹ Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – Б. 193.

²² Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т., 2002. – Б. 470-471.

hikoya uchun manba qilib olingan biror ijtimoiy hodisa tasviridan katta umumlashmalar chiqarish, muayyan davr hayot tarzini keng miqyosda gavdalantirish imkoniyati tugʻiladi. Unda mazmun va hajmiga koʻra asarni janr jihatdan farqlash qiyin boʻlib qoladi (Sh.Xolmirzayevning “Bulut toʻsgan oy” hikoyasi).

Poetikaga doir tadqiqotlar, monografiya, terminologik lugʻatlar, darslik hamda oʻquv qoʻllanmalarida hikoya janri turli rakurslarda oʻrganilib, ilmiy talqin etib kelinadi. Shunga koʻra, ushbu janrga xos poetik kanonlar (belgi va mezonlar) ancha puxta ishlab chiqilgan. Aytish mumkinki, bugungi maktab oʻquvchisi ham hikoya janrining asosiy belgilaridan xabardor. Lekin, shunga qaramasdan, nazariy adabiyotshunoslik, hech qachon, bu janr xususida soʻnggi xulosani ayta olmaydiki, bu ham hikoyaning doimiy harakatdagi, murakkab estetik hodisa ekanidan dalolatdir²³.

Hikoyada “lakonizm” tushunchasi tasvir mezoni hisoblanadi. Bu janrdagi bitiklarda tasvir koʻlami ham xuddi hajm kabi chegaralangan boʻladi. Roman va qissadagidek hikoyada qisqartma epizod va chekinishlar boʻlmaydi, lakonizm yetakchilik qiladi. Hikoyada muallif, zamon va makon hamda obrazlar tizimi, syujet liniyasi oʻziga xos tartibga ega boʻladi? “Hikoya – bu hayotning yakunlangan epizodi: kayfiyat, vaziyat, harakat birligi”²⁴.

XX asr boshidan to hozirgi davrgacha qalam tebratgan va tebratayotgan Abdulla Qodiriy, Gʻafur Gʻulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Shukur Xolmirzayev, Xayriddin Sulton, Erkin Aʼzam, Nazar Eshonqul, Salomat Vafo, Abduqayum Yoʻldosh, Luqmon Boʻrixon, Sobir Oʻnar, Zulfiya Qurolboy qizi, Ulugʻbek Hamdam va b.q. yozuvchilarning hikoya uslublari bir-biridan jiddiy farq qiladi. Sovet davri hikoyachiligida inson mehnati ulugʻlangan asarlar yaratishga eʼtibor qaratilgan boʻlsa, oʻtgan asrning yetmishinchi yillaridan buyon insonning oʻzi hikoya bosh gʻoyasini tashkil eta boshladi. Bugungi kun hikoyachiligi esa falsafa va psixologiya bilan uygʻun holda, asosan, inson ruhiyati, uning botiniy dunyosini tahlil etishga diqqat qaratimoqda.

Har qanday hikoya qachon yaratilgani, qaysi zamon voqea va odamlarini aks ettirishi, qaysi millatga taalluqli boʻlishidan qatʼi nazar yuksak badiiy saviyaga ega boʻlsagina adabiyotning haqiqiy namunasi hisoblanadi. Aynan shunday asarlarda poetik koʻlam, umumbashariy qamrov, yuksak axloqqa doir muammolar aks etadi. “Aynan shu kabi asarlar buyuklikda soddalikni, oʻtmishda kelajakni, kelajakda kechmishni, nafratda muhabbatni, oʻlimda hayotni, iztirobda lazzatni ifoda etadi...”

Birinchi bobning ikkinchi fasli “*Zamonaviy hikoyalarda inson ruhiyati tasviri*” tarzida nomlangan. Adabiyotda roʻy bergan hech bir hodisa ijtimoiy ildizdan uzilgan emas. Qahramonning kechinmalari aks etgan har qanday asar ijtimoiy mohiyatga egadir. Chunki qahramonda uygʻongan tuygʻular jamiyatda yuz berayotgan hodisalar tufayli yuzaga kelgan boʻladi. Negaki, har qanday qahramon jamiyat aʼzolari bilan bevosita yoki bilvosita muloqotga kirishishga mahkum. Ijodkor ayni shu tashqi muhit taʼsirida paydo boʻlgan hissiyotlarni badiiy tasvirlash

²³ Жўракулов У. Уммон соғинчи. Сўз боши // XX аср жаҳон ҳикояси. – Т.: Фағур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. – Б. 5.

²⁴ Бобоев.Т. Адабиётшунослик асослари. – Т., 2002. – Б. 471.

vositasida ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatadi. Zotan, "Adabiyot san'atlar san'atidir. Uni boshqa hech qaysi san'atga tenglashtirib bo'lmaydi. Boshqa san'atlar ixtisoslashgan, u – yo'q. Qolganlari bir tarkibli, u esa sintetik. Adabiyot san'atlarning hammasini o'z ichiga oladi"²⁵. Bu qudrat faqat adabiyotdagina inson mohiyati, o'zligi bor bo'yicha namoyon bo'la olishi tufayli tug'iladi. U mantiq va mantiqsizlik, hissiyot va mushohada, ulug'vorlik va tubanlik, ilohiylik va soddalik uyg'unlashib ketgan badiiy so'z orqali inson ruhini anglashga intiladi. Adabiyot – borlik va yo'qlik. U insonga oid barcha narsaga birday bog'liq, olam esa inson uchungina yaralgan. Har bir hodisa adabiyotda yuz beradi, adabiyotdan kelib chiqadi, adabiyotga qaytadi.

Insoniyat tarixida yuz bergan barcha muhim voqealar, unutilmas hodisalar, keskin o'zgarishlar avvalo ijodkor qalbida, so'ng so'zda va nihoyat, amalda namoyon bo'ladi. Ijodkorda ko'pchilikda bo'lmagan eng kichik o'zgarishni ham sezish, uning ahamiyatini teran anglash va bularning biologik yoki ijtimoiy sababini topish iqtidori bor.

Insonlar hayotidagi ko'plab yoqimli-yoqimsiz o'zgarishlarni bir qadar ommaviy qilishning eng ishonchli va sinalgan yo'li uni adabiyotga ko'chirishdir. Shu sababli ham hukumat tepasiga kelgan har qanday hukmron sinf, tabaqa, partiya yoki guruh ishni, avvalo, adabiyotni o'ziga bo'ysindirish, hech bo'lmaganda, o'z manfaatlariga moslashga urinishdan boshlaydi.

Tashqi omil va ta'sirlarning ijodkor asarlarida qanchalar va qay qirralari bilan bo'y ko'rsatishi uning shaxsiga bog'liq. Adib davr hodisalari bir odamda paydo qilgan tuyg'ularni umuminsoniy falsafiy qarashlar bilan uyg'un holda asariga ko'chira olsa, uning ijodi davrlar osha yashayveradi. Asarlarda aks etgan kechinmalar davr doirasini yorib chiqa olmasa, ular ham davr kabi o'tkinchi bo'ladi. Inson uchun kechinmalar muhimroq. Chunki ularni tug'dirgan sabablar ham, natija ham tezlikda esdan chiqadi, o'sha paytda tuyilgan betakror tuyg'u esa bir umrga qoladi. Inson kechinmalari uning kimligi, yashagan davri, millati-yu, e'tiqodidan qat'i nazar, o'zgarmas bo'ladi. Axir quvonch va qayg'u, qo'rquv va hayajon, muhabbat va nafrat, burch va mas'uliyat tuyg'ulari inson paydo bo'lganidan to hozirga qadar o'zgarmagan, o'zining ibtidoiy shaklida. Faqat ularning kelib chiqish manbalari va namoyon bo'lish shakllari har safar turlichadir.

Mahoratli yozuvchi arzimaday ko'ringan hayotiy hodisa yoki holatni o'quvchining tuyg'ularini junbushga keltiradigan yo'sinda tasvirlay biladi. Yaxshi yozilgan hikoyada kitobxon muallif bilan fikrdosh bo'lmasa-da, tasvirlangan holatdan o'z xulosasini keltirib chiqaradi. Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida muallif dastxati darhol ko'zga tashlanib turadi. Uning hikoyalarida qo'llangan so'zlar, qahramonlarning chizgilar, voqealar intihosi darhol muallifni oshkor etadi. Zotan, adiba uslubiga olamni unga ko'ringaniday, biror yorqin bo'yoqlar-u silliqdashlarsiz tasvirlash xos. Uning barcha asarlari ham kitobxon ko'nikkani, istab kutgani singari yaxshilik bilan tugamaydi. Adiba ijod namunalarining deyarli sakson foizida bosh qahramon noxush vaziyatga tushib, o'sha vaziyat qurboniga aylanadi. Yozuvchining ayrim asarlarida bugun paydo bo'layotgan ma'naviy illatlar bo'rtib

²⁵ Анри Барбюс. Золя в 1932. В книге: Называть вещи своими именами. –М., 1986. – С. 76.

ko'zga tashlanadi. Ya'ni hamma o'z tirikchiligi bilan ovora, hamma pul topish ilinjida, birov bilan birovning ishi yo'q. Uning hikoyalari boshdan-oyoq sarguzashtnamo ruhda yozilgani, hikoyachining o'z qahramonlariga ayamay munosabatda bo'lgani sabab asarlarida inson fojeasi bo'rttirib aks ettiriladi.

Zulfiya Qurolboy qizi ko'pincha qahramonlar xarakterini yaratish va psixologik holatini ochishni to'la hikoyachi ixtiyoriga tashlaydi. O'zi voqealar rivojiga aralashmay, badiiy mantiqqa zug'um qilmay, borni boricha tasvirlaydi. Bunda u asosiy e'tiborni hikoyachi nutqi yordamida qahramonlar ruhiy holatini ochishga qaratadi.

Zulfiya Qurolboy qizining hikoyalarida qahramon va uning ma'naviy dunyosini aks ettirishga alohida e'tibor qaratiladi. Uning "Ayol", "Hilola" kabi hikoyalarida qahramonlarida asl milliy qadriyatlardan bir qadar chekingan o'rinlar ham ko'zga tashlanadi. Bu hol jamiyat hayotidagi jiddiy ma'naviy evrilishlar tufayli sodir bo'lgani ko'rsatiladi. Zulfiya Qurolboy qizi asarlarini mavzuning dolzarbligi jihatidan, balki yuqori baholash mumkin emasdir. Adiba hodisani ko'rsatishdan ko'ra odamning ruhiyatini tasvirlashni muhim hisoblaydi. Muallifning barcha asarlaridagi obrazlar o'zaro mushtarak jihatlar mavjudligiga qaramay, har biri o'zining takrorlanmas qiyofasiga ega. Shu sabab uning asarlarini sinchiklab o'qish va idrok etish talab qilinadi.

Yozuvchining barcha asarlari muallifning ichki ehtiyoji tufayli yaratilgan. Adiba uchun ko'pchilikni qiziqtirayotgan muammoni ko'tarib chiqishdan ko'ra bir inson ko'nglini bezovta qilgan ruhiy holatni ifodalash muhim. Yozuvchining tasvir maromi shafqatsiz, u qahramonlarining siyratidagi qashshoqlikni hech pardalamay, ayamay ko'rsatadi. Z.Qurolboy qizi insoniy fazilatlardan mahrum, baxtiqaro, uquvsiz, mehr-u oqibatsiz obrazlarni yondiruvchi kinoya bilan tasvirlaydi. Muallif asarlarida ruhiy holat ifodasining haqqoniyligiga erishadi.

Zulfiya Qurolboy qizi asarlaridagi har bir obraz tip – hech kimga o'xshamagan alohida betakror odam. Adiba asarlarida personajlar ruhiyatini his qildirib, o'quvchida tuyg'u hosil qilib, uning ma'naviyatiga ta'sir etadi. Adiba uchun voqea – qahramonning ichki dunyosini chuqurroq ochish, ruhiyatini to'laroq anglash vositasi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi "**Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida tasvir mahorati**" tarzida nomlangan. Bobning birinchi fasli "**Ayol tabiatidagi o'ziga xosliklarning hikoyalardagi aksi**" yo'sinida nomlangan. Zulfiya Qurolboy qizining hikoyalarini qiziqarli qiladigan omillardan biri syujetning o'tkirligi hisoblanadi. Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida o'tkir syujet voqealarni hayotdagidan boshqacha tartibda joylashtirish, asarni kutilmagan hodisa tasviridan boshlash, "sir saqlash" singari usullardan o'rinli foydalanish, turli-tuman chekinishlarga keng o'rin berish yordamida yuzaga keltiriladi.

Zulfiya Qurolboy qizi asarlarining ko'pgina qahramonlari – g'alati xususiyatlarga ega kishilar. Hikoyalardan birining qahramoni – turmush qurmagan qiz Dildor nikohsiz oldin sartarosh yigit bilan, so'ng o'g'ri bilan birga yashaydi. Ammo halollik, mas'uliyat, intizom, fidoyilik kabi insoniy fazilatlarga ega, qolganlardan ham shuni qat'iy talab qiladi. G'arbda oddiy holdek qaraladigan erkak-ayol munosabati bizning mentalitetimizda bir dunyo ruhiy assotsiatsiyalarga

sabab bo'ladi. Adibaning "Gunoh" hikoyasida jahoniy ta'sirlar og'ushidagi ayolning sarguzashtlarga boy hayoti aks ettiriladi. Hikoyadagi Po'lat obrazini ham odatdagi qarashlar bilan baholash mushkul. O'zi o'g'ri bo'lgani holda chinakam erkaklarga xos mardlik qiladi, himmat ko'rsatadi. Po'lat Dildorga ilohiy bir go'zal xilqat deb qaraydi, uning yonida ekanligi bilan kifoyalanadi, qizdan ortiq hech narsa talab qilmay, chuqur muhabbat bilan suyadi. Gulni ko'rganda qanchalik zavqlansa, qanchalar maftun bo'lsa, Dildorga ham shunday munosabatda bo'ladi, uni nozik, maftunkor va jozibali gulday avaylaydi.

Adibaning "Tafakkur", "Ayol", "O'lim hech narsa emas" hikoyalari bilan Kortasarning "Dahshatli tush" novellasi orasida mushtaraklik borgan o'xshaydi. "Dahshatli tush"da letargik uyquda yotgan qiz aslida sergak, bedor, uni qurshab olgan kishilar esa uyquda bo'ladi. Kortasar hikoya so'nggida qahramonini uyqudan uyg'otadi hamda o'quvchisini bir zarb bilan tushlarning egri-bugri ko'chalaridan chiqarib yuboradi va uni o'z hayoti bilan ro'para qilib qo'yadi. Z.Qurolboy qizida esa otasi noshud, uquvsiz odam sanaydigan Tangriberdi aslida atrofidagi kishilardan ming marta baland, ko'zi ochiq, tafakkuri uyg'oq bo'ladi. Jamiyat, unda qaror topgan nosog'lom aqidalar tufayli Tangriberdi nogironga aylanadi. Eng dahshatlisi, bunga o'z padari buzrukvori sababchi bo'ladi. Letargik uyqudagi qiz kabi Tangriberdi ham uzoq muddatlik karaxtlik – na o'lik, na-da tirik holga tushadi va sog'lom hayotga qaytganida atrofdagilarning hamon kundalik ikir-chikir tashvishlar paydo qilgan jaholat uyqusida ekanini ko'radi. Bu hol o'quvchiga qahramon o'zining xasta tafakkuri bilan ham boshqalardan ustunroq ekanini anglatadi.

Ijodida inson fojiasi birinchi o'rinda turadigan Kafka va Kamyu singari adiblar ham qay bir jihatlari bilan Z.Qurolboy qizi uslubiga ta'sir ko'rsatgan deyish mumkin. Agar ustoz adiblarda iztirobning manbaini anglash, uni tahlil etish, odamning qiyofasizlikka aylangan qiyofasi ochib tashlangan bo'lsa, o'zbek adibasi hikoyalaridagi Donish, Dovul tegirmonchi, Ma'mur singari obrazlar ham jisman sog'lom bo'lgani holda ma'nau majruh bo'lib qolavergani ko'rsatiladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi faslida ***"O'zbek ayoli ruhiyati tasvirida portret va peyzajdan foydalanish"*** muammosi tadqiq etilgan. Adiba Zulfiya Qurolboy qizi "Kelin" hikoyasida sabr-toqatli o'zbek ayolining xarakterini Xoldor kelin obrazi orqali yoritgan bo'lsa, o'zbek millatiga xos bo'lgan milliylik, urf-odatlarni Muslim momo obrazi orqali aks ettiradi. Hikoyada ota-bola, qaynona-kelin, er-xotin munosabatlari o'zgacha rakursda tasvirlangan. Adiba Oygul obrazi orqali yolg'iz ayol qismatiga yangicha yondashadi. Bu ayolning maqsadi birovning erini tortib olib, undan foyda ko'rish emas. U – kimgadir suyanishni istaydigan baxti kemtik ojiza. Yozuvchi turli toifaga mansub ayollar ruhiyati tasvirida peyzaj va portretdan juda o'rinli foydalanadi.

Umuman olganda, zamonaviy o'zbek hikoyalaridagi ayol obrazlari ko'proq ma'naviy qadriyat va an'analarni saqlovchi, sabr-toqatli, uzoqni ko'zlab yashovchi insonlar sifatida aks ettirilganligini e'tirof etish mumkin. Ishda tahlil qilingan har bir badiiy asar o'zi mansub davr va makon, ya'ni konkret hayot manzarasining ifodasi bo'lib, bugungi odam ruhiyati haqidagi qarashlarning shakllanishiga yordam beradi.

“Tarixiy taraqqiyot nuqtai nazaridan istiqlolga erishilganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q. Binobarin, uning ijtimoiy, ma‘naviy va o‘zga belgilarini ayirib ko‘rsatish anchagina mushkul. Ayni vaqtda o‘tgan yillar shunday salmoqqa, shunday o‘zgartuvchilik qudratiga egadirki, xalq psixologiyasi, dunyoni idrok etish, tushunish va tushuntirish tarzida shunchalik katta o‘zgarish yasadiki, avvalgi bir necha o‘n yillarda ham bunday qilib bo‘lmasdi²⁶”. Bu hol adabiyotda ham namoyon bo‘lmay qolmadi. Shu sabab istiqlol davri adabiyoti ma‘nan yangi odamni alohida va betakror shaxs sifatida tadqiq etishga yo‘naltirildi.

Zulfiya Qurolboy qizi timsollar mohiyatini yorqin ochuvchi qirralarni yaxshi biladi. Shuning uchun ham “Hilola” hikoyasida bosh qahramon ruhiyatidagi evrilishni ishonarli ko‘rsata olgan. Hikoyada soddagina Hilola o‘z xatti-harakatlarini taftish qiladigan o‘y kishisi sifatida tasvirlanadi. Hilola timsolida adoqsiz mashaqqatlar, so‘ngsiz azoblar ham ezgulikka umid va odamlarga ishonch tuyg‘usidan ayirolmagan o‘zbek ayoli tasvirlanadi. Hilola qahramon ham, donishmand ham emas. Lekin u har bir odamning tirikligi faqat azoblardan iborat bo‘lishi mumkin emas, deb hisoblaydi, shunga ishonadi va ezgu kunlarni yaqinlashtirishga intiladi.

Adabiyotda ayol hamisha nafosat, mehribonlik va shafqat timsoli sifatida tasvirlanib kelgandi. Ammo “Ayol”, “Momo Havo”, “Muhabbat va nafrat”, “Gunoh”, “Hilola” asarlarida ayrim ayol obrazlari o‘z tabiatlariga muvofiq ravishda qora bo‘yoqlarda ham tasvirlangan. Xususan, “Momo Havo” hikoyasidagi Nafosat obrazi o‘zbek adabiyotida ulkan yangilik deb aytish mumkin bo‘lgan badiiy yukka ega. Kitobxon hikoya so‘ngiga qadar Nafosatni suyadi, unga ishonadi, undan minnatdor bo‘ladi, yaxshi ham shunday ayollar bor, degan taskin bilan ko‘ngli ko‘tariladi. Hikoya so‘ngida esa ayolning tamomila o‘zgacha mohiyatga ega yovuz kimsaligini ko‘rib, dahshatlarga tushadi. Z.Qurolboy qizining ayrim asarlarida ayol o‘zining butun adabiyot ahli necha asrlardan buyon ko‘nikkan shafqati, latofati, nazokatidan mahrum holda qashshoq ichki dunyosi bilan aks ettiriladi. Yozuvchi ayrim ayollarga xos jirkanch, mayda gap-u mantiqsizlikni juda shafqatsizlik bilan ko‘rsatadi.

